

RAQAMLI MADANIYAT SHAROITIDA CHET TILI O'QITISHNING DIDAKTIK TRANSFORMATSIYASI

Baxridinova Mutabarxon Adaxamovna

Andijon davlat universiteti 2 kurs tayanch doktoranti

Annotation: *This article explores modern digital approaches and new didactic strategies in foreign language teaching. In recent years, the rapid development of information and communication technologies has led to the emergence of new approaches and didactic changes in the education system, particularly in the teaching of foreign languages.*

Keywords: *discursive approach, didactic competence, pedagogical concept, didactic strategy, technological tool, digital literacy.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются современные цифровые подходы и новые дидактические стратегии в обучении иностранным языкам. В последние годы стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий обусловило появление новых подходов и дидактических изменений в системе образования, в частности в преподавании иностранных языков.*

Ключевые слова: *дискурсивный подход, дидактическая компетенция, педагогическая концепция, дидактическая стратегия, технологическое средство, цифровая грамотность.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda chet tillarni o'qitishda raqamli yondashuvlarni chuqur o'rganish va yangicha didaktik strategiyalari haqida fikr yuritiladi. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi ta'lim tizimida, xususan, chet tillarini o'qitishda yangi yondashuvlar va didaktik o'zgarishlar tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar: *diskursiv yondashuv, didaktik kompetensiya, pedagogik konsepsiya, didaktik strategiya, texnologik vosita, raqamli savodxonlik*

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi ta'lim tizimida, xususan, chet tillarini o'qitishda yangi yondashuvlar va didaktik o'zgarishlarni talab qilmoqda. Raqamli dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar natijasida chet tillarini o'qitish ham transformatsion jarayonlarga moslashishga majbur bo'lmoqda. Bu jarayon ijodiy yondashuvlar, moslashuvchan metodlar va yangi pedagogik konsepsiyalar bilan tavsiflanadi.

Avvalombor “Transformatsiya” tushunchasiga bir nazar solsak, ushbu termin pedagogikada, xususan til o‘qitishda bu o‘quv jarayonining mazmuniy, didaktik va metodik jihatdan yangilanishi, ya’ni qanday qilib dars berish, qanday usullar va vositalardan foydalanish o‘zgarayotganini bildiradi.

Masalan: raqamli texnologiyalar joriy etilgach, darslar interaktiv platformalar orqali o‘tilmoqda bu didaktik transformatsiya hisoblanadi.

Zamonaviy raqamli madaniyat sharoitida xorijiy tillarni o‘qitish nafaqat texnologik yangiliklarga moslashishni, balki butun o‘quv jarayonining didaktik qayta qurilishini ham talab qilmoqda. Stalder (2019) ta’kidlaganidek, chet tili ta’limi raqamli madaniyat kontekstida qaralishi lozim bo‘lgan muhim sohaga aylanmoqda.[5]. Ushbu yondashuv Hallet (2018) tomonidan ilgari surilgan raqamlashtirish bosqichlaridan tashqariga chiqib, o‘quv jarayonining ichki didaktik mohiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqishni nazarda tutadi.[6]

An’anaviy (analog) ta’lim va raqamli ta’lim o‘rtasidagi tafovut asta-sekin yo‘qolmoqda. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun turli kontekstlarda faol va moslashuvchan harakat qilish, ya’ni raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishni zarur qiladi. Mazkur kompetensiya faqat texnologik vositalarni bilish emas, balki ular bilan mustaqil, tanqidiy va ijodiy ishlay olishni ham o‘z ichiga oladi [1].

Maqolada quyidagi savol muhokama qilinadi: raqamli savodxonlik chet tilini o‘rganish kontekstida alohida didaktik kompetensiyami yoki faqatgina mavjud kompetensiyalarni egallash yo‘lida o‘zgarayotgan metodik va texnologik yondashuvlarmi? Ushbu savolga javob izlashda transformatsion-didaktik yondashuv muhim rol o‘ynaydi, chunki bu jarayonda o‘qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari tubdan o‘zgarishga yuz tutmoqda.

Masalan, 2024-yilgi Eurostat hisobotiga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi davlatlarida raqamli vositalar yordamida chet tilini o‘rganayotgan talabalarning soni 5 yil ichida 60 foizga oshgan. O‘zbekiston sharoitida esa bu jarayon endigina shakllanayotgan bo‘lib, Davlat statistika qo‘mitasining 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning 37 foizi raqamli ilovalardan muntazam foydalanadi.

2025-yilgi “Standards – Margins – New Horizons II: 21-asr ta’limi uchun kanonlar” nomli xalqaro konferensiyaning “Digitalität” seksiyasida taqdim etilgan ma’ruzalar ushbu transformatsion o‘zgarishlarga turli rakurslardan yondashadi. Jumladan, quyidagi uchta asosiy nuqtai nazar asosida:

1. **Diskursiv yondashuv** – raqamli ta’lim tushunchasini tahlil qilish, uning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o‘rnini aniqlash;
2. **Talabalarning o‘quv jarayoniga yondashuv** – o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari qanday o‘zgarayotgani;

3. **Kasbiy-nazariy nuqtai nazar** – o‘qituvchining dars dizayni, raqamli vositalardan foydalanish madaniyati va talabalarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli.

Bechtel (2019), Lütge va Merse (2021) tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiya nafaqat texnologik vositalarning joriy etilishi, balki innovatsion va ijodiy o‘qitish shakllarining shakllanishiga ham turtki beradi. Bu holat chet tili ta’limida nafaqat metod va vositalarning tanlanishiga, balki til, muloqot, madaniyat va matnlar bilan ishlashga oid kompetensiyalarni chuqurlashtirishga olib keladi. Aynan mana shu to‘rtta komponent – *Language, Communication, Culture, Texts* – chet tilida interaktiv va interkultural kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bu jarayonni faqat kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan texnik vositalarning tatbiqi sifatida emas, balki shaxsiy, tilga oid va madaniy tafakkurni shakllantiruvchi kompleks ta’limiy tizim deb qarash lozim (Vogt & Schmidt, 2021). Shuningdek, raqamli o‘quv muhiti talabalarining nutqiy diskursga faol ishtirokini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan yangi pedagogik ssenariylarni ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Didaktik transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu zamonaviy IT-infratuzilmani yaratish, raqamli o‘quv muhitlarini integratsiya qilish, va o‘qituvchilar bilan o‘quvchilar o‘rtasida raqamli hamkorlik madaniyatini shakllantirishdir. Heinen (2021) bunday o‘zgarishlar muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan omillarni aniqlaydi: o‘quv jamoalari (Team-Schule), individual ta’lim yondashuvlari va samarali fikr-mulohaza tizimlari.

Endi quyidagi jihatlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Raqamli o‘zgarishlar sharoitida didaktik yondashuvning moslashuvchanligi

Raqamli texnologiyalar va ularning tez sur‘atlarda rivojlanib borishi o‘qitish jarayonida doimiy moslashuvni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, chet tillarini o‘qitishdagi diskurslar, malakalashtirishga oid yondashuvlar va ularning ta’limiy realizatsiyasi qanday darajada moslashuvchan bo‘lishi kerak? Asosiy savol qanday qilib raqamli o‘zgarishlarga moslashgan holda yuqori darajadagi ta’limiy maqsadlar saqlanib qoladi?

2. Yangi matn formatlari va ularning chet tilini o‘rgatishda o‘rni

Kelajakda chet tilini o‘qitish jarayonida qanday matn shakllari asos qilib olinishi kerak? "Boshidan raqamli shaklda yaratilgan" matnlar (Becker va boshq., 2023) tushunchasi qanday aniqlanishi mumkin va ular oddiy "digital texts"dan nimasi bilan farq qiladi? Shuningdek, talabalar ularni chet tilida qabul qila olishlari uchun matnlar qanday darajada multimodal bo‘lishi kerak?

3. Tilga oid farqlar va texnik vositalarga kirish imkoniyati

Turli tillar raqamli ta'limda turlicha rol o'ynaydi. Bu, jumladan, jamiyatdagi o'rni yoki raqamli tarjima vositalarining mavjudligiga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu vositalar chet tilida muloqot qilish imkonini berar ekan, ular ayni vaqtda cheklovchi omil ham bo'lishi mumkin, chunki ular faqat ayrim tillarni qo'llab-quvvatlaydi. Shunday ekan, bu texnologiyalar qay darajada samarali va maqsadga muvofiq?

Chet tillarini o'qitishda raqamli vositalarning roli ortib borayotgan bir sharoitda, ta'lim jarayoni faqat texnologik jihatdan emas, balki konseptual va metodik jihatdan ham tubdan o'zgarib bormoqda. Ushbu transformatsion jarayonni chuqur anglash va unga mos ravishda ta'lim tizimini takomillashtirish – hozirgi zamon talabi bo'lib qolmoqda. Yuqoridagi savollar bugungi kunda chet tillarni o'qitishda raqamli yondashuvlarni chuqur o'rganish va yangicha didaktik strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular lingvodidaktika sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun zamonaviy, amaliy va nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Livingstone, S. (2012). *Critical reflections on the benefits of ICT in education*. Oxford Review of Education.
2. Eurostat. (2024). *Digital Economy and Society Statistics – Households and Individuals*.
3. Davlat Statistika Qo'mitasi. (2023). *Oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bo'yicha hisobot*.
4. Conference Proceedings (2025). *Standards – Margins – New Horizons II: Canons for 21st-century Teaching*.
5. "Kultur der Digitalität", nemis tilida — 2016:-Felix Stalder
6. Hallet, W. (2018). *The multiple languages of digital communication*. In J. Buendgens-Kosten & D. Elsner (Eds.), *Multilingual Computer Assisted Language Learning* (pp. 3–17). Multilingual Matters.